

# OCHIQ MULOQOT



## OCHIQ MULOQOT

Mavzu: Shaharda “Obod mahalla” Davlat dasturining ijrosini ta’minlash borasidagi ishlar.

Termiz shahar hokimi o’rinbosari Bunyod Djuraev ishtirokida ochiq muloqot o’tkazildi. Muloqotda OAV xodimlari va ijtimoiy tarmoq faollari ishtirok etishdi va o’zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi.

Ochiq muloqotda hokim o’rinbosari quyidagi fikrlarni bildirdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2021 yildagi ““Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-5048-sonli qarori ijrosi to’g’risida

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan dasturga asosan 2021 yilda jami 2 ta mahallada qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari uchun jami 101,9 mlrd. so’m mablag’lar

yo'naltirildi.

Xususan,

a) respublika byudjetidan – 8,5 mlrd so'm;

b) mahalliy byudjetdan – 372,0 mln. so'm;

v) tarmoq korxonalarini - 537,0 mln. so'm;

g) bank kredit mablag'lari – 20,7 mlrd.so'm;

d) aholi va tadbirkorlar, xomiylik mablag'lari-62,5 mlrd.so'm;

ye) ichimlik suv dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar-3,0 mlrd.so'm;

yo) ichki yo'llar dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar-5,04 mlrd.so'm;

- j) elektr tarmog'i dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar-1,2 mlrd.so'm ajratilishi rejalashtirilib, ushbu mablag'lar 100% o'zlashtirilishi hisobiga quyidagi ishlar amalga oshirildi.

- Jumladan,

Amalga oshirilgan ishlar.

Shahar hokimligi, shahar prokuraturasi, shahar Ichki ishlar boshqarmasi, shahar Davlat soliq inspeksiyasi, shahar Xalq qabulxonasi va tijorat banklari va aloqador tashkilotlar bilan birgalikda ishchi guruxlar tashkil etildi.

Soxalar kesimida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha:

Dastur doirasida 3,0 mlrd. so'mlik mablag'lar hisobidan 6,0 km (Guliston-1,7 km, Shifokor-0,275 km) ichimlik suv tarmog'ini qurish va rekonstruktsiya qilindi hamda "Shifokor" MFYda 1 dona ichimlik suv inshooti (100%) qurildi.

- ichki yo'llarni yaxshilash bo'yicha:

Ma'lumot uchun, "Obod mahalla" dasturi doirasida 5,04 mlrd. so'm mablag'lar hisobidan 13,2 km (Guliston-1,8 km, Shifokor-1,3 km) ichki yo'llarda asfal'tbeton yotqizildi.

- elektr ta'minotini yaxshilash

Dastur doirasida 1 mlrd 152,0 mln. so'mlik mablag'lar xisobidan 2 ta mahallada 8,3 km (Guliston-4,3 km, Shifokor-4,0 km) elektr tarmog'i tortildi, 3 dona (Guliston-1 dona, Shifokor-2 dona) transformator o'rnatildi, 99 dona (Guliston-48 dona, Shifokor-51 dona) yog'och ustunlar beton ustunlarga almashtirildi.

- gaz ta'minotini yaxshilash bo'yicha:

Dastur doirasida 258,0 mln. so'm mablag'lar hisobidan 2 ta mahallada jami 3,0 km (Guliston-2,0 km, Shifokor-1,0 km) gaz tarmoqlari hamda 13 dona (Guliston-8 dona, Shifokor-5 dona) gaz taqsimlash punkti ta'mirlandi.

Obod mahalla dasturi doirasida gaz ta'minoti tizimidagi ishlar 100%ga bajarildi

- aloqa va axborotlashtirish tizimini yaxshilash bo'yicha: Ma'lumot uchun, "Obod mahalla" dastur doirasida, 187,5 mln.so'mlik mablag'lar hisobiga 14,9 km (Guliston-6,9 km, Shifokor-8,0 km) optik tolali aloqa tarmoqlari rekonstruktsiya qilindi, 2 dona (Guliston - 1 dona, Shifokor - 1 dona) mobil aloqa bazaviy stantsiyalar yangidan o'rnatildi.

- ijtimoiy soha infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha:

Dastur doirasida Respublika byudjetidan (8,5 mlrd so'm) 2 ta mahallada 2 ta bog'cha (Shifokor MFYda 2 ta, 180 o'rinli 17-sonli MTT va 480 o'rinli 28-sonli MTT) va Guliston maxallasida 2 ta maktab (17-sonli maktabga 550 o'rinli qo'shimcha bino qurish, 18-sonli maktabga 210 o'rinli qo'shimcha bino qurish)larda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Natijada, Guliston va Shifokor maxallalarida Maktab ta'limi sohasi hamda maktabgacha ta'lim qamrov darajasi yanada oshdi.

- chiqindilar bilan ishlash (106,0 mln so'm) infratuzilmasini yaxshilash doirasida (Guliston MFYda 2 dona, Shifokor MFYda 2 dona) joylarda 4 ta yangi turdagi modul, konteyner va urnalar o'rnatilishi rejalashtirilgan, amalda "Bio Texno Eko" MChJ tomonidan manzilli dastur asosida 106,0 mln so'mlik mablag'lar hisobidan 4 ta yangi turdagi modulli konteynerlar o'rnatildi.

- mahalla ko'chalarini obodonlashtirish (266,0 mln.so'm) doirasida 2 ta (Guliston-565 metr va Shifokor MFYda-830 metr) ob'ektlarda 1,6 km piyodalar yo'lakchasi quriladi, joylarda 26 dona (Guliston MFYda-10 dona, Shifokor MFYda-16 dona) tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi.

- aholini ommaviy sportga jalb qilish (21,0 mln.so'm) bo'yicha 2 ta ob'ektlarda sport maydonchasi (warkaut va boshq.) tashkil etilishi rejalashtirilib, amalda 2 ta sport maydonchalari (warkaut) tashkil etildi.

- Dasturdan tashqari ishlar

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan dasturda belgilangan ishlardan tashqari "Guliston" mahallasi xududida 1,5 km (qiymati 165,0 mln so'mlik) bardior, 1,5 km latok (qiymati 280,0 mln so'mlik), "Shifokor" mahallasi 6 dona tungi yoritish chiroqlari, "Guliston" mahallasida 150,0 metr ichimlik suv quvurlari, Shifokor mahallasida 1 dona bolalar (35 mln.so'm) maydonchasi, Guliston mahallasixududida dasturdagi 1 dona sport maydonchasidan tashqari yana 1 dona sport maydonchasi (13,0 mln so'mlik) o'rnatib berildi, Shifokor mahallasi xududida 35,0 metr oqova suv tarmog'i tortib berildi.

Guliston va Shifokor mahallasi xududidagi qurigan daraxtlar qayta xatlovdan o'tkazilib, olib tashlandi va o'rniga yangidan xar xil turdagi 1200 dona daraxt ko'chatlari ekildi. Fuqarolarning ko'cha tomondagi 15870 p/metr devorlari oqlanib berildi, 1279 dona daraxtlar oqlandi va xududdagi 32,7 tonna qattiq va maishiy chiqindilar tozalanib, olib chiqib ketildi.

1,2 km piyodalar yo'lagi tashkil etildi, 1,5 km asfalt yo'llar yoqasida bardiorlar o'rnatildi.

Termiz shahar hokimligi va "Suvta'minot" MChJ Termiz bo'limi bilan birgalikda 150 metr ichimlik suv tarmog'i hashar yo'li bilan amalga oshirildi. 5 gektar yer maydoniga bog' tashkil etish ishlari amalga oshirildi. Ikkita maxalla hududida aholi va tadbirkorlar tomonidan 12 ta savdo, maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari qurilib, 100 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.